



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Dauletmuratova Bayramgul Maxsetbay qizi,
*Pedagogik ta'limotlar tarixi 1-bosqich tayanch
doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq o'g'zaki ijodi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkurini o'stirish, muomala madaniyatini rivojlantirish va ma'naviy tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Maktab darsligida, fan to'garaklarida tadbir va tanlovlarda xalq og'zaki ijodini kengroq olib kirishning yangicha usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, badiiy, ijodiy, amaliy faoliyat, folklor, xalq musiqasi, havaskorlik faoliyati, professionallik

Xalq og'zaki ijodini o'rganish, xalq tarixi, urf odatlari, an'analari, kechinmalari, intilishlari, hayot-tarzi, dunyoqarashi, qadriyatlar yosh avlodni har tomonlama bilimli, ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi ma'naviy taraqqiyotning asosiy tarixiy ildizlaridandir. Har bir xalq og'zaki ijodi, o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odati va an'analari, orzu – intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir, ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizliklarni ko'ramiz. Shunday ekan, xalqimizning qalb-qo'ri, yuksak aql-zakovati bilan asrlar davomida yaratilib avlodlarga yetkazib kelingan xalq og'zaki ijodini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sniflarda xalq og'zaki ijodini o'rganishni ta'limiy, tarbiyaviy o'rni beqiyos. O'qituvchilar o'qish savodxonligi, ona tili darslarida hamda to'garak mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi bilan yoshlarni tanishtirib boradilar. Xalq og'zaki ijodini o'rganish o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatadi, o'quvchilarni ona vatan, uning tabiati, kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g'oyalarini ularning ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

Xalq ijodidagi so'z san'atiga oid asarlar yozuv madaniyati kashf qilinmasdan oldin ham yaratilgan, ijro etilgan. Og'zaki ijoddagi topishmoqlardan tortib maqol va ertaklar ham og'zaki tarzda aytilgan. Har bir ijrochi o'zi aytayotgan ijod namunasiga hayot tajribasini dunyoqarashini atrofdagi yurtdoshlari bilan munosabatini singdirib ijro etgan. Xalq og'zaki ijodi asarining badiiy jihatdan mukammalashuvi yoki zaiflanishi ijrochining mahoratiga bog'liqdir. Agar asarni yaxshi ustoz ko'rgan badiiy ijod qilish iste'dodiga ega bo'lgan shaxs ijro etsa, asar badiiy jihatdan sayqal topadi.



Xalq og'zaki ijodi asari o'tmish zamonlarda yozma tarzda saqlab qolinmaganligi uchun mohir ijrochining vafot etishi asarning ham yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan. Xalq ertaklarini maqollarini o'qir ekanmiz, faraz yo'li bilan ularning naqadar mukammal va go'zal nusxalari mavjud bo'lganini payqaymiz.

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida qadriyatlarimizning tyarkibiy qismi hisoblangan. Xalq og'zaki ijodini, qadriyatlarini bilmay turib, o'zbekman deyishi mumkin emas. O'zbek millatiga mansub insonning xalq og'zaki ijodini bilmasligi, xalqning yuziga oyoq qo'ygan, ota- bobolarini hurmatini haqoratlagan hisoblanadi. Xalqimiz yaratgan dostonlar. ertaklar, maqol va topishmoqlarni o'quvchilarga o'rgatish o'zbekona qadriyatlar ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning, „Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala –bu yoshlarimizning odob- axloqi, yurish- turishi, bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim –yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday uliug' zotlarni avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks –sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deb ta'kidlashlari fikrimiz dalilidir. Hech ikkilanmay aytrish mumkinki, xalqimizning butun fazilati, falsafasi, dunyoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati xalq og'zaki ijodida eks etgan. Shu orqali o'quvchi vatan, xalq, ona, ilm, g'urur naqadar muqaddas tushuncha ekanligini anglab yetadi. Bugungi kunda milliy mafkuramizni shakllantirish va rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari munosib o'ringa egadir.

Xalq og'zaki ijodining eng yorqin yo'nalishlaridan biri bu ertaklardir. Ertaklar- yaxshilikka yetaklar, deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Boshlang'ich sinfda ertaklarni o'rganishni tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Ertaklar, avvalo bolalarning jonivor hayvonlarga, parrandalarga bo'lgan qiziqishini, mehrini oshirsa, ikkinchidan mehnat orqali farovon, tinch, osoyishta turmush kechirish mumkinligi uqtiriladi. Ertakning yakunida qissadan- hissa chqarishga undaydi. Yani, „Yaxshilik qilsang–yaxshilik topasan, yomonlik qilsang –jazo olasan“, „Mehnat qilsang –rohat ko'rasan“, „Mehnatdan kelsa boylik- turmush bo'lar chiroylik“ kabi maqollarning ma'nosi izohlansa bolalar har bir o'qigan ertaklarining xulosasini maqollar bilan izohlashga harakat qiladilar. Bu bolalarning tafakkurini charxlash bilan birga, ko'proq maqollar yod olishga yordam beradi.



Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari „novda” yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olyaptilar. Ushbu darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning 4K modeli asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu modelda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish, yozishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatadi. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda dars, to'garak, tadbir va tanlovlarda 4K modelidan keng foydalanib, bolani tanqidiy fikrlash qobiliyatini, savol va topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasini esa qo'shimcha mashg'ulotlar bilan rivojlantirish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertaklarni o'rganish orqali 4K modelining „komunikativlik” ya'ni boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga, bolalarni o'z fikrini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar. Bolalar ertakni o'qib o'rganib, xulosa chiqarib nima yaxshiyu nima yomon ekanligini anglay boshlaydilar.

Bolalar ulg'ayib borgan sari o'zlarini kichiklarga ertak aytib berishga, ularni aqlli vazmin bo'lishga, o'jar –injiq qiliqlarni tashlashga undaydilar, ular ham o'zlarini kichik tarbiyachilardek tuta boshlaydilar, ertaklar bilan tanishib borgan yosh avlod o'zi uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab boradilar. Shuning uchun darslarimizda o'zbek xalq ertaklari ko'proq kiritilsa juda yaxshi natija beradi. Chunki, xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini o'ziga xos an'anada shakllangan ertaklar tashkil qiladi.

O'zbek xalq ertaklari yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonchni kuchaytiradi. Tafakkuri shakllanib kelayotgan bola tasavvurini boyitadi, yaratuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, idrokni kengaytiradi. Shu bois ham otabobolarimiz azal azaldan farzand tarbiyasida bir biridan qiziqarli ertaklarni aytib berishga e'tibor qaratganlar. Bola qancha erta xalq og'zaki ijodi bilan yaqinlashtirilsa shuncha foydali bo'lishini asoslab berishgan. Ezgu g'oyalarga yo'g'rilgan hayot qiyinchiliklarini o'tkir zehn, aql-idrok, halollik, adolat bilan yengib o'tajak qahramonlarga boy, yakuni doim yaxshilik bilan tugovchi ertaklar, bolaning tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ba'zi bolalarda endi-endi bo'y ko'rsatayotgan yolg'onchilik, dangasalik, maqtanchoqlik, o'g'rilik, qo'rqqoqlik kabi salbiy xususiyatlari o'rnida to'g'riso'zlik kamtarlik, mehnatsevarlik, halollik mard va jasurlik kabi ijobiy fazilatlar kamol topadi.

Farzand tug'ilib to voyaga yetgunga qadar oila, ta'lim muassasasi va atrofdagi ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida kamol topadi. Manashu ma'suliyatli va murakkab jarayonda tarbiya usullaridan eng bebahosi –kitob mutolaasi ekanligini



allaqachonlar tushunib yetganmiz. Shuning uchun ham bolani erta yoshdan kitobni sevishga o'rgatish maqsadida ularga aql- zakovat mo'jizasi bo'lgan ertaklarni aytib berishdan erinmaslik kerak. Negaki ertaklarda oilaviy tarbiyaning umumiy shartlari tahlil qilingan, axloqiy tarbiyaning taxminiy mazmuni mujassamdir. Ertak qahramonlarining taqdirini kuzatish ajoyib vaziyatlar bolani ong -shuurini rivojlantiradi.

Xalq og'zaki ijodining keng namunalaridan biri- maqollar. Maqol atamasi arabcha-gapirmoq aytmoq so'zlaridan olingan. Maqollar xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono va purhikmat so'zlardir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi bilan hayotiy tajribadan xulosa sifatida yuzaga keladi. Maqollar qaysi xalq yoki millat tomonidan yaratilmasin uning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, boshqa millat aholisi ham foydalanishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar savod o'rgatish davridayoq maqollar bilan tanishib, o'rganib boradilar. Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda o'qish savodxonligi fani muhim o'rin tutadi. Bolalarni yoshlariga mos xalq maqollari vositasida tarbiyalash bola nutqini rivojlantirib, tafakkur darajasini yuksaltiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi fanida mavzular ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, ma'lum bir mavzu yuzasidan o'rganganlarini tahlil va xulosalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T: O'zbekiston, 2017;
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005. - 5-son, 5,6,8-9-betlar.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005.
4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
5. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2010.
6. Mariwan H. R. The effectiveness of reading folk literature in improving english language learners' reading proficiency in elementary grades. Qalaai zanistscientific journal Vol. (6), No (1), Winter 2021
7. Li, Y. Application of cloud computing data in northeast folk art education. EAI International Conference, BigIoT-EDU. Published by Springer. 429-437, 2021
8. Akramova F. A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang'ich. Ta'lim o'qituvchisining psixologik ta'siri. zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2015, 3